

NAZARIY BILIM OLISHDA INNAVATSION TEXNALOGIYALARINI O‘ZIGA XOS JIHATLARI

Shadiev Azizjon Yokubjonovich

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

“Jismoniy madaniyat” fakulteti

“Sport o‘yinlari va uni o‘qitish metodikasi” kafedrası dotsenti

Chirchiq, O‘zbekiston.

Annotatsiya: Insoniyatning taraqqiyoti doimo murakkab va ko‘p qirrali jarayonlar bilan bog‘liq bo‘lib, bu jarayonda nazariy bilimlar, ma‘naviy qadriyatlar va sog‘lom turmush tarzining ahamiyati yuksak baholanadi. Ushbu maqolada nazariy ta‘limning tarixiy ildizlari, uni shakllantirishda qadimiy va zamonaviy pedagogik yondashuvlarning o‘rni tahlil qilinadi. Xususan, talabalarga nazariy bilimlarni samarali yetkazish uchun foydalaniladigan an‘anaviy va innovatsion uslublar – muammoli o‘qitish, izlanish, guruhii ishlash, hamda mustaqil fikrlashni shakllantirish kabi metodlar yoritiladi. Shuningdek, maqolada insonparvarlik (gumanizm) tamoyillariga asoslangan ta‘limning afzalliklari, pedagogik munosabatlarning o‘zgarishi, talabalarni erkin, ijodkor shaxs sifatida tarbiyalashning dolzarbligi ham ko‘rsatib o‘tilgan. Innovatsion texnologiyalarning pedagogik faoliyatda qo‘llanilishi esa nafaqat ta‘lim sifati, balki jamiyatning umumiy madaniy yuksalishiga xizmat qilishi ta‘kidlanadi. Mazkur maqola ta‘lim tizimidagi nazariy yondashuvlarning zamonaviy talablarga mosligi, ularning amaliyotdagi qo‘llanilishi va ijtimoiy ahamiyatini ochib beradi.

Kalit so‘zlar: innovatsion, guruh, gumanistik, metod, rivojlanish.

SPECIFIC FEATURES OF INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN ACQUIRING THEORETICAL KNOWLEDGE

Shadiev Azizjon Yokubjonovich

Chirchik State Pedagogical University

Faculty of Physical Culture

Associate Professor at the Department of "Sports Games and Methods of
Their Teaching"

Chirchik, Uzbekistan

Abstract: The development of humanity is always associated with complex and multifaceted processes in which theoretical knowledge, spiritual values, and a healthy lifestyle play a crucial role. This article explores the historical roots of theoretical education and analyzes the role of both ancient and modern pedagogical approaches in shaping it. In particular, it highlights the use of traditional and innovative methods in effectively delivering theoretical knowledge to students—such as problem-based learning, research activities, group work, and the development of independent thinking. Additionally, the article discusses the benefits of education based on the principles of humanism, the evolution of pedagogical relationships, and the relevance of educating students as free-thinking and creative individuals. The application of innovative technologies in pedagogical practice is emphasized not only for improving the quality of education but also for contributing to the overall cultural development of society. This article reveals how modern theoretical approaches in the education system align with contemporary requirements and explores their practical application and social significance.

Keywords: innovation, group, humanistic, method, development.

Insoniyat hayoti va uning taraqqiyoti juda murakkab, ko'p qirrali va g'oyat chigal muammolarga boydir. Bu muammolar kishilarning moddiy ne'matlar ishlab chiqarish, xizmatlar ko'rsatish, fan, madaniyat, siyosat, mafkura, axloq, davlatni boshqarish sohalaridagi, shuningdek, oiladagi va boshqa faoliyat turlarining borgan sari ko'payib, rivojlanib hamda ularning o'zgarib borishi natijasida vujudga keladi. Uzoq davrlar mobaynida insoniyat fikrini band qilib kelgan ayrim masalalar bugungi kunda oddiy haqiqat va oson bilish mumkin bo'lgan narsaga o'xshab ko'rinadi. Shu muammolarni yechish va o'z ehtiyojlarini kondirish maksadida kishilar turli yo'nalishlarda, sohalarida faoliyat ko'rsatadilar. Demak, insonning turli faoliyatlari ichida eng asosiysi, ularning yashashi, kamol topishini ta'minlaydigani sog'lik va ma'naviy ne'matlar ishlab chiqarish hamda xizmatlar ko'rsatishdan iborat bo'lgan faoliyatdir.

Nazariy ta'limga oid bilimlar antik dunyoning ko'zga ko'ringan olimlari Platon, Aristotel, Ktesiy, Ksenofont asarlarida, shuningdek qadimgi Misr, Messopotamiya, Hindiston, Xitoy va Markaziy Osiyo olimlarining asarlarida o'z aksini topgan edi.

Kur'oni Karimni, Hadislarni, Qobusnomani, ulug' mutaffakkir-larimiz Al-Buxoriy, at-Termiziy, Muso al Xorazmiy, Abu Ali ibn Sino, Abu Nosir Farobiy, Abu Rayxon Beruniy, Mir Alisher Navoiy, Mirzo Ulug'bek, Markaziy asarlarida insonning yashashi uchun, tabiat ehsonlarini o'zlashtirish, ijodiy mehnat qilish kerakligi qayta uqtirilganligi bilan talabalarni tanishtirish muhim tarbiyaviy ahamiyatga ega.

Nazariy bilim berishda o'qitishning turli-tuman metodlaridan foydalaniladi. Bu o'rinda I.Ya.Lerner, M.N Skatkin, M.A.Danilov, B.P.Esipning tavsiya qiladigan metodlaridan foydalanilinish ijobiy natijalarni beradi. Ular quyidagilar:

- tushuntirish metodi
- reproduktiv metod
- muammoli bayon qilish metodi - qisman izlanish metodi
- tadqiqot metodi.

V.P.Simonov tasnifi bo'yicha nazariy tarbiyalashda talabalarni guruhlarga ajratib ta'lim berish maqsadga muvofiqdir.

Birinchi guruhga o'qitishning o'qituvchi dominantlik qiladigan hikoya, suhbat, tasniflash, tushuntirish va hokazolarni kiritadi. Bunda talabaning eng asosiy vazifasi o'qituvchi taqdim qilayotgan kategoriyalarni idrok etish va o'qituvchi mulohazalarining mantiqiga ergashish, bayon qilinayotgan mazmuni tushunish, eslab qolish va keyinchalik o'rganilayotgan materialni reproduksiya qilishdan iborat. Uning fikri o'qituvchi mulohazalarining tizimiga qanchalik yaqin bo'lsa, o'quv materialini o'rganishning tavsiya etilgan yo'li shunchalik ishonchli bo'ladi.

Ikkinchi guruhga o'qitishning turli shakllari: mashqlar misollar va masalalar, amaliy va mustaqil ishlar kiradi. Bu o'rinda, bizning fikrimizcha talaba faoliyatining harakteri tavsiya etilgan metodning samaradorligini belgilaydi. O'qituvchining o'zni esa pedagogik jarayonni mohirona boshqarishdan iborat bo'ladi.

Talabalarga nazariy ta'lim berishda muammoli o'qitish metodlari ham samarali natijalarni beradi, chunki ta'limda muammoli yondoshish o'quv dasturlarida ham, o'qituvchi bilimlarini bayon qilishda ham, talabalarining mustaqil ishlarida ham o'z ifodasini topadi.

Talabalarda nazariy bilimlarni turli-tuman muammoli ta'lim usullaridan foydalanish ijobiy natijalarni beradi va jismoniy tarbiya masalalarining yechimini topishda qo'l keladi.

Innovatsion usullar orqali nazariy bilimlarni oshirish talabalarda bilimdonlikni va madaniyatni qaror toptirishga qaratilgan.

Ilmiy izlanish jarayonida uzluksiz, yaxlit, bog'liqlikni ta'minlovchi «bosqichli ta'lim» konsepsiyasining to'laqonli amalga oshmayotganligi sababli talaba yoshlarning bilim darajasi sust rivojlanayotganligi aniqlandi.

Talabalarda innovatsion («yangilik elementlari orqali») nazariy bilimlarni pedagogik faoliyat, shaxsning shakllanishini o'ziga birlashtirib real pedagogik

jarayonni vujudga keltiradi va bu jarayon turli ta'lim-tarbiya konsepsiyalari, nazariyalari yordamida loyihalashtirilishi, ta'lim tizimi muassasalarida tadbiq etilmokda.

Kuchli ta'sirchan va mustahkam jismoniy ta'lim tizimini faqatgina fan o'rnatgan ob'ektiv asoslar va amaliyotda tasdiqlangan qoidalar yordamida rivojlantirish mumkin. Bu, albatta innovatsion texnologiya bilan bog'liqdir.

Innovatsion pedagogikani, ko'pincha, an'anaviy, alternativ deb ataydilar. Faraz qilayotgan rivojlanish strategiyamiz «rivojlantiruvchi o'qitish» yo'nalishlaridan, eng avvalo, o'z intilishlarini ta'lim tizimida innovatsion usullar orqali nazariy bilimlarni qaror toptirish, bilimdonlikni va madaniyatni shakllantirishga qaratilgan. «Bolalarning qanaqa tug'ilishi bu hech kimga bog'liq emas, lekin har bir insonning yetarlicha rivojlanishi, yuqori darajaga erishishi, o'ziga yoqqan mashg'ulot bilan shug'ullanishi va hayotda o'z o'rnini topishi, o'z hayotini munosib o'tkazishi, ta'limga bog'liqdir», - deb ta'kidlaydi A. Munavvarov (1996, 78). Bugungi kunda gumanistik pedagogika uni maktabdagi munosabatlar markaziga qo'yishni va kerakligicha rivojlana olishi uchun hamma ishni bajarishni talab qiladi.

«Gumanistik pedagogikani ko'pincha, **innovatsion** deb ataydilar, lekin uning innovatsionligi faqatgina biz uchun, zamonaviy g'arb tizimlari alaqachon gumanistik yo'nalishga o'ta boshlab va asta - sekin yangi munosabatlarga aylana boshlagan» (Mavlonova va boshq., 1999,)

Gumanistik pedagogikani to'la ma'noda innovatsion deb aytish mumkin. U tashqaridan in'eksiya talab qilmaydi. Yuqori o'quv tarbiyaviy ta'sir natijalari tizimining qayta tashkil etilishi evaziga erishiladi.

Gumanizm (insonparvarlik) - insonning dunyodagi eng qimmatli ma'naviy boyliklarning yagona konsepsiyasidir. Bu konsepsiyaning asosiy qoidasi shaxs qadr-qimmatini himoya qilish, uning erkinlik, baxt, rivojlanish va o'z qobiliyatini namoyon etish huquqini tan olishdan iboratdir.

Insonparvarlik pedagogikasi o'z navbatida shaxsga qaratilgan. Uning belgilari:

- nazariy bilimlarni egallab olish va ma'lum doiradagi mahorat va ko'nikmalarni yuzaga keltirish o'rniga psixik, jismoniy, intellektual (aqliy) rivojlanishga diqqatning qaratilishi;

- kuchlarni erkin, mustaqil fikrlovchi va harakat qiluvchi shaxsni shakllantirish uchun jamlash, har qanday hayotiy va o'quv vaziyatlarda asosli qarorni tanlab qabul qila oladigan insonparvar fuqoroni yetishtirish;

- o'quv jarayonini muvaffaqiyatli qayta yo'naltirishga erishish uchun kerakli tashkiliy shart - sharoitlar bilan ta'minlash.

- o'quv jarayonini insonparvarlashtirishda avtoritar pedagogikadan, pedagogik bosimdan voz kechib, talaba va pedagog o'rtasida haqiqiy insoniy munosabatlar o'rnatish, talaba faoliyati va shaxsi asosiy ahamiyat kasb etuvchi, shuningdek, shaxs tarbiyasiga qaratilgan pedagogikani tushunish kerak.

Insonparvarlik nuqtai nazaridan tarbiyaning asl maqsadi har bir tarbiyalanuvchining munosabatlari, o'zlashtirish faoliyati, to'la huquqli sub'ektning mustaqil, erkin shaxs bo'lib yetishtirishdan iboratdir.

Ta'lim-tarbiya jarayonining insonparvarlik darajasi, shu jarayonda shaxs o'zini namoyon eta olishi, o'zidagi hamma ta'lim olish imkoniyatlarini, shu jumladan nazariy bilimdonlikni ochib bera bilishi, uning erkinlikka qobiliyati, ijodga ma'suliyatini ochib berishi uchun shart-sharoitlar yaratib berishi bilan belgilanadi.

Innovatika muammolariga murojaat etish va ularni muhim zamonaviy ilmiy fikrlash yo'nalishlariga qo'shish jamiyatda innovatsion jarayonlar dinamikasining o'sib borayotganligini tushunish natijasida vujudga keldi. Adabiyotlarda innovatsiya muammolari ko'p vaqtgacha tadqiqotlar tizimida o'rganilib kelindi. Ammo vaqt o'tishi bilan jamiyat hayoti faoliyatining hamma sohalarida chunonchi pedagogik innovatsion texnologiyalar o'zgarishlari asosida sifat xarakteristikalarini baholash muammosi yuzaga keldi. Bu o'zgarishlarni faqatgina umumiy nazariyalar bilan aniqlab bo'lmaydi.

Innovatsion jarayonlarni o'rganish uchun boshqa yo'llar zarur, unda innovatsiya tahlili faqatgina fan va texnika erishgan zamonaviy yutuqlardan

foydalanishnigina o'z ichiga olmay, balki, boshqarish, ta'lim, huquq, kasbiy ta'lim va boshqa sohalarni ham qamrab oladi.

Адабиётлар:

1. Ўзбекистон Республикасининг «Таълим тўғрисида»ги қонуни. - Т., 1997 й.
2. Ўзбекистон Республикасининг Кадрлар тайёрлаш миллий дастури.-Т., 1997 й.
3. Н.Азизхаджаева. «Педагогик технология ва педагогик маҳорат» Т., 2003.
4. А.Бўрибоев. «Педагогик технология» Т., 2004 й.
5. В.П.Беспалько. Педагогика и прогрессивные технологии обучения. Москва: ИРПО, 1996, -336 стр.
6. А.Болиев. Мустақиллик ва тараққиёт йўлидан: Марказий Осиё Ҳамдўстлиги// Ўзбекистон овози.-1997.-29 июн.-Б.3.
7. Л.В.Голиш. «Замонавий таълим технологиялари» Халқ талими 2003 й.
8. А.Зуннунов., М.Хайруллаев., Н.Хотамов., Д.Шодиев Ўрта Осиёда педагогик фикр тараққиётидан лавҳалар. -Т:Фан, 1996,351 бет.
9. Ў.Қ.Толипов., М.Усмонбоева. Педагогик технология: назария ва амалиёт. Монография. Тошкент:" Фан". 2005.
10. Ў.Қ.Толипо. Технология педагогического эксперимента // Материали I международной научно-методической конференции.Том II.-Тараз:1998.
11. Ў.Толипов. Тажриба-синов ишларида янги педагогик технологиялар // Халқ таълими ж. 2000.№ 2
12. Ў.Толипов. Ўқитувчилар тайёрлашда янги педагогик технологиялар // Халқ таълими ж. 1999.№ 2-3.

13. Ў.Толипов. Педагогик технология ва уни лойиҳалаш босқичлари // ДТСларни ишлаб чиқиш ва татбиқ этиш ҳамда касбий таълимда узвийликни таъмилаш муаммолари. Республика илмий-амалий конф. Мат.- Тошкент:ЎзПФТИ.2000.

14. Ў.Толипов. Таълим:Ўқитувчи ва талаба фаолияти // Соғлом авлод учун ж.2000. № 7-8.

15. УЎТ муассасаларида талабалар билим даражасини назорат қилишнинг рейтинг тизими тўғрисида муваққат Низом // Халқ таълими. 2000. № 4-сон, 10-23.